

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-3/1
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Aminjonova Ch.A. Buxoro viloyati sharoitida soya (<i>Glycine hispida</i> Maxim) o'simligini yetishtirishda ozuqa elementlariga bo'lgan talabi	181
Ibragimova F.D., Daminov A.S. Jo'jalar eymerioz qo'zg'atuvchilari bilan asinxron zararlanganida fensid va fensid premiks preparatlarining samaradorligi	185
Odilova M.Yo. <i>Anisum vulgare</i> Gaertn o'simligining dorivor xususiyati va yetishtirish texnologiyasi	187
Raximbayeva D.A., Abduraximov U.K., Saidov R.I. Qoraqum ilmiy-tajriba stansiyasi tajriba dalalari tuproqlarining agrokimyoviy tahlili	190
Saidova S.A., Matyakubov Z.Sh. <i>Atropa belladonna</i> ning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	194
Sarimsaqov M.M., Muxammadiyev B.U., Mirzomurotov M.F. Paxtachilikda sug'orish usullarining ahamiyati	199
Siddiqov R.I., Masharipov M.X., Xamrayev N.U., Maxmudov U.V. Xorijiy kungaboqar navlarining biometrik ko'rsatkichlari	205
To'xtayev Sh.H., Xayrullayev M.F., Baqoyeva O.B. G'o'zaning so'ruvchi zararkunandalariga qarshi kurashishda RAUDO 50% sus.k. preparatining samaradorligi	207
Umarov O.R., Bafayeva Z.X., Ostonova N.X. G'o'za barg sathiga tuproq sho'rlanishi va azotli o'g'itlar ta'siri	210
Umarov O.R., Bafayeva Z.X., Ostonova N.X. G'o'za ekini yetishtirilayotgan turlicha sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlarining agrokimyoviy xossalari	212
Uzaqov G'O., Tilovov O'X. G'o'zaning C-8292 navini turli sug'orish usullari hamda meyorlarining paxta hosildorligiga ta'siri	215
Xaitova K.M. Yer tuzish chizmalarini raqamlashtirishga quyiladigan talablar tahlili	218
Аманова М.Э., Камолова Х.Х., Эгамбердиев С.Қ. Хоразм вилояти иклим шароитида турли эколого-географик хуудларга мансуб кунжут намуналарининг агробиологик хусусиятлари	223
Курёзов И.Р., Ибрагимов Н.М., Рузимов Ж.Ш. Асосий экинда дон учун етиштирилган маккажўхорининг ҳосилдорлигига минерал ўғит меъёрларининг таъсири	230
Мамутов Б.Х., Мухсимов Н.П. “Zip-lock” контейнер ҳажми ва тупроқ субстратларининг қрим қарағайи (<i>Pinus Nigra</i> Subsp. <i>Pallasiana</i>) ниҳолларининг ўсишига таъсири	233
Мухаммадиев Б.У., Таджиев К.М., Мухаммадиев Н. Такрорий экилган кунгабоқарга гумимакс стимулятори билан ишлов беришнинг куруқ вазни ўзгаришига таъсири	237
Новицкий З.Б. Семеноводство на Арале	240
Норов Б.Н., Абурахманов Д.Р., Хўжаева О.Т., Ортиқова Д.Д. <i>G.hirsutum</i> L. турига мансуб ғўзанинг F ₁ дурагайларда морфологик кўрсаткичларнинг ирсийланиши	243
Хожамкулова Ю.Ж., Саттаров М.А., Эргашев М.А., Саитканова Р.У. Фенотипическая оценка солеустойчивости сортов риса (<i>Oryza sativa</i> L.)	246

TEXNIKA FANLARI

Bobojonov N. GIS texnologiyalari asosida oqoltin tumani tuproqlarining sho'rlanish darajasini tahlil qilish	252
Islamova Z.Sh., Matkarimova D.B., Nabiyeva I.A., Miratayev A.A. Jun mahsulotlariga kuyabardosh xossa berishning biokimyoviy usuli	255
Жураев Т.О., Манглиева Д. Воздействие упругих волн на тела различной формы, находящиеся в деформируемой среде	258

haroratni yuqori bo'lganligi sababli ta'sir kuchi uzoq muddatga bormadi va hosilni saqlashda o'z ta'sirini yo'qotdi [2,5].

O'tkazilgan tajribalardan va olingan natijalar shuni ko'rsatdiki qo'llanilgan yangi RAUDO 50% sus.k. preparati g'o'za o'simligiga uzoq muddatga ta'sir etib, uni o'rgimchakkanadan himoya qilib, nihoyat hosilning oshirishiga sabab bo'ldi.

2-jadval

G'o'za ekinidagi o'rgimchakkanaga qarshi kurashishda RAUDO 50% sus.k. preparatining samaradorligi (2023-2024 yillar uchun). Buxoro viloyati Buxoro tumani Rabotiqalmoq MFY fermer xo'jaliklari

Variantlar	Sarflangan preparatlar me'yori l/ga	Hosildorlik, s/ga			
		2023		2024	
		Hosildorlik, s/ga	Qo'shimcha hosil, s/ga	Hosildorlik, s/ga	Qo'shimcha hosil, s/ga
1. Nazorat (preparatsiz)	-	30,5	-	28,8	-
2. Insekto-super28% sus. k 0,4 l/ga	0,4	34,8	4,3	32,5	3,7
3. RAUDO 50% sus.k.	0,8	35,3	4,8	34,0	4,9
4. RAUDO 50% sus.k.	1,0	36,0	5,5	34,5	5,9

2-jadvalda keltirilgan natijalardan ko'rinib turibdiki, 2 yil davomida olib borilgan tajribalarimiz Buxoro viloyati Buxoro tumani Rabotiqalmoq MFY fermer xo'jaliklari sharoitida nazorat variantini har bir bargda zararkunanda soni 63,3 va 70,1 dona yilning oxirida paydo bo'ldi. Kimyoviy preparatlar ayniqsa RAUDO 50% sus.k. qo'llangan variantlarda esa o'rgimchakkanaga to'liq yo'qoldi. Variantlar bo'yicha hosildorlikni saqlab qolishda RAUDO 50% sus.k. preparati 0,8-1,0 l/ga me'yorida qo'llanilganida 4,9 dan 5,9 s/ga qo'shimcha paxta hosili olishga erishildi. Shuningdek, Buxoro viloyatida yetishtiriladigan g'o'za o'simligida o'rgimchakkanaga qarshi kurashishda RAUDO 50% sus.k. 0,8-1,0 l/ga me'yorida qo'llash, qadimdan sug'oriladigan allyuvial o'tloqi tuproqlarda g'o'za o'simligi o'sish va rivojlanishiga ijobiy ta'sir etib har bir gektardan 34-36 sentinernan hosil olishga imkon yaratildi, qo'shimcha hosil bo'lsa 4,9-5,9 s/ga bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Buxoro viloyatida Buxoro tumanida g'o'zaga o'rgimchakkanasiga qarshi kurashda RAUDO 50% sus.k. 0,8-1,0 l/ga hajmda foydalanish uzoq muddat sug'oriladigan allyuvial o'tloq tuproqlarda samarali bo'ladi. Paxta o'simligi o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, 34-36 s/ga qo'shimcha hosil bilan esa 4,9-5,9 s/ga hosil olish mumkin edi.

O'tkazilgan tajribalar va olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, g'o'za o'simligiga qo'llanilgan yangi RAUDO 50% sus.k. preparati issiqqonli hayvonlar va foydali hasharotlarga boshqa dori vositalariga nisbatan ko'proq ta'sir ko'rsatadi va pirovardida hosildorlikning ijobiy o'zgarishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alimuhammedov S.N. Интегрированная защита удобная и качество производства, «Хлопководство», Москва 1983. стр.6-8.
2. To'xtayev Sh.H., Ilyosov A.A., Xayrulloev M.F. "Gensekto-superni o'rgimchakkanaga ta'siri" 2023-yil. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi
3. Успенский Ф.М. Обыкновенные паутины клещ в орошаемых районах средней Азии. Акад. С.Х. O'zbekiston.Tashkent.1996. 62 b.
4. Sh.H.To'xtayev F.A. Ganiyeva "Qishloq xo'jaligining asosiy ekinlarni zararli organizmlari va ularga qarshi kurashni biologik usullari", Uslubiy qo'llanma Buxdu. Sharq nashryoti 2020.17 bet.
5. Sh.H.To'xtayev, M.F.Xayrulloev "Sulfur in nature it's impact on spiders", Web of konferens-2023 year.

UO'K: 581.144.4

G'O'ZA BARG SATHIGA TUPROQ SHO'RLANISHI VA AZOTLI O'G'ITLAR TA'SIRI

O.R. Umarov, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Z.X. Bafayeva, katta o'qituvchi, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

N.X. Ostanova, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada g'oz o'simligining barg yuzasining o'zgarishini tuproq sho'rlanishi va azotli o'g'itlarning ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Sho'rlanmagan va kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda o'tkazilgan tajriba davomida barg yuzasining kattaligi shonalash, gullash, ko'saklash va vegetatsiya oxirida o'lchangan. Sho'rlanmagan tuproqlarda eng yuqori barg yuzasi N₂₅₀ variantida 346,3 sm² ekanligi aniqlangan. Kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda ham azotli o'g'itlar barg yuzasini oshirishga olib kelgan, ammo sho'rlanish darajasini yuqori bo'lgan tuproqlarda barg yuzasining kattalashishi sekinlashganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: G'oz o'simligi, sho'rlanish darajasi, azotli o'g'it me'yori, barg yuzasi, shonalash, gullash, ko'saklash, vegetatsiya oxiri.

Аннотация. В данной статье исследуется влияние засоленности почвы и азотных удобрений на изменение площади листа растения хлопчатника. Эксперимент проводился на несолёных и слабо засоленных почвах, в ходе которого измерялась площадь листа на стадиях стеблеобразования, цветения, формирования коробочек и в конце вегетационного периода. На несолёных почвах максимальная площадь листа была зафиксирована в варианте с нормой удобрения N₂₅₀ и составила 346,3 см². На слабо засоленных почвах азотные удобрения также способствовали увеличению площади листа, однако на почвах с более высоким уровнем засоленности увеличение площади листа замедлилось

Ключевые слова: Хлопчатниковое растение, уровень засоленности, норма азотных удобрений, площадь листа, бутонизация, цветение, плодо образование, В конце вегетационного периода.

Abstract. This article investigates the impact of soil salinity and nitrogen fertilizers on changes in the leaf area of cotton plants. The experiment was conducted on non-saline and slightly saline soils, during which the leaf area was measured at stages of stem formation, flowering, capsule development, and at the end of the growing season. On non-saline soils, the maximum leaf area was observed in the N₂₅₀ variant, which was 346.3 cm². On slightly saline soils, nitrogen fertilizers also contributed to an increase in leaf area; however, on soils with higher salinity levels, the increase in leaf area slowed down.

Key words: Cotton plant, soil salinity level, nitrogen fertilizer rate, leaf area, budding, flowering, fruit formation, at the end of the growing season.


Kirish. G'oz o'simligi dunyo bo'ylab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muhim o'ringa ega bo'lib, asosan tola ishlab chiqarishda foydalaniladi. G'oz ekinlari o'zining yuqori mahsuldorligi va iqtisodiy ahamiyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Biroq, uning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ko'plab ekologik omillar, xususan tuproqning kimyoviy va fizikaviy holatiga, tuproq sho'rlanishiga va o'g'itlarning ta'siriga bog'liq [1,2]. Sho'rlanish, tuproqdagi tuzlarning ortib borishi va o'simliklar uchun zarur bo'lgan suvning yutilishini kamaytirishi tufayli g'oz o'simligining o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [3,4]. G'oz o'simligi barg yuzasining o'zgarishi uning fotosintez faoliyatiga, suv bug'latish jarayoniga va oksidlanish-qaytarilish jarayonlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Barg yuzasining katta bo'lishi o'simlikning maksimal fotosintez jarayoni jadal bo'ladi. Shu sababli, g'oz o'simligining barg yuzasi o'zgarishini o'rganish nafaqat agronomik nuqtai nazardan, balki fiziologik barqarorlikni ta'minlash hamda tuproq unumdorligini oshirish uchun muhimdir [5,6].

Materiallar va metodlar. Buxoro viloyati Buxoro tumani Rabotiqalmoq massivida mavjud bo'lgan turlicha sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar va g'ozaning Buxoro – 10 va Chjuntay-2 navi, azotli o'g'itlarning turli me'yori tanlab olingan.

Tajriba dalasining bitta paykalining eni 4,8 metr, uzunligi esa 60 metr, shunda bitta paykalning umumiy maydoni 288 m² bo'lib, shundan hisobot maydonchasi 144 m² ni tashkil etdi. Tajriba dalasining har bir paykalida 8 ta dan qator mavjud bo'lib, shulardan o'rtasidagi 4 ta qator hisobga olinadigan qator hisoblanadi, qolgan to'rtta qatorning ikkitasi o'ng tomnodan, ikkitasi esa chap tomnodan himoya qatori hisoblanadi (1-chizma).

1-chizma

Bitta paykalning tuzilish sxemasi



Dala tajribasida qo'llanilgan asosiy o'g'itlardan azotli o'g'it sifatida keng qo'llaniladigan ammiakli selitra (NH_4NO_3 – 34,6 % N), fosforli o'g'it sifatida tarkibida 18 % P_2O_5 bo'lgan oddiy superfosfat va mahalliy xom-ashyo asosida olinayotgan kaliyli o'g'itlardan kaliy xlorid (KCl – 60 % K_2O) o'g'iti qo'llanildi.

G'o'zaning barg sathi kesmalar usuli bilan aniqlangan.

Natijalar va ularning tahlili. G'o'za o'simligi barg yuzasining katta bo'lishi tufayli juda ko'p fiziologik funksiyalarni boshqaradi. Bular orasida fotosintez jadalligi, fotosintez sof mahsuldorligi, barglarning suv bug'latishi kabi ko'rsatkichlar uchun ahamiyatlidir.

Barg yuzasi g'o'za o'simligining shonalash fazasida o'g'itsiz nazorat variantida $252,9 \text{ sm}^2$ ni tashkil qildi. Tajribada tavsiya qilingan N_{250} , P_{175} , K_{125} kg li variantda $346,3 \text{ sm}^2$ ni tashkil qilgan holda barcha sho'rlanish darajalari orasida ushbu fazada eng yaxshi natijani qayd etdi (1-jadval).

Bir tup g'o'za o'simligining gullash fazasi barg fazasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'rsatkichlar ancha yuqori bo'lib o'rganilgan barcha variantda $1464,2 \text{ sm}^2$ dan $2123,8 \text{ sm}^2$ gacha ekanligi qayd etildi. Ushbu ko'rsatkichlarda ham eng yaxshi natija oltinchi variantda kuzatildi. Ko'saklash davrida kelib ko'rsatkichlar eng yuqori nuqtagacha keldi, albatda bizning tajribamizda o'rganilgan 8 ta variantdan nazoratdan boshlab tegishli $3225,3 \text{ sm}^2$ dan $4628,9 \text{ sm}^2$ ni tashkil qildi. G'o'za o'simligining vegetatsiya oxiriga kelib ushbu ko'rsatkichlar yuqoridagiga mos holda $2275,5 \text{ sm}^2$ dan $4497,5 \text{ sm}^2$ gacha ekanligi kuzatildi.

1-jadval

G'o'zaning barg sathining o'zgarishiga tuproq sho'rlanishi va azotli o'g'itlarning ta'siri (sm^2/tup)

№	Variantlar	Shonalash	Gullash	Ko'saklash	Vegetatsiya oxirida
Sho'rlanmagan					
1	Nazorat	$252,9 \pm 1,37$	$1464,2 \pm 0,5$	$3225,3 \pm 0,1$	$2275,5 \pm 5,4$
2	$\text{P}_{175}\text{K}_{125}$ -fon	$295,3 \pm 1,01$	$1986,9 \pm 0,9$	$4105,4 \pm 0,7$	$3715,2 \pm 1,78$
3	Fon+N ₁₀₀	$308,7 \pm 1,14$	$1925,3 \pm 0,64$	$4247,8 \pm 1,01$	$3863,4 \pm 1,63$
4	Fon+N ₁₅₀	$325,4 \pm 1,36$	$2002,3 \pm 0,84$	$4386,2 \pm 1,09$	$3959,8 \pm 0,73$
5	Fon+N ₂₀₀	$328,1 \pm 0,25$	$2025,7 \pm 0,065$	$4435,7 \pm 1,11$	$4240,5 \pm 1,7$
6	Fon+N ₂₅₀	$346,3 \pm 0,12$	$2123,8 \pm 0,65$	$4503,6 \pm 0,11$	$4345,4 \pm 1,5$
7	Fon+N ₃₀₀	$342,2 \pm 0,065$	$2098,4 \pm 0,13$	$4526,0 \pm 9,59$	$4401,2 \pm 0,5$
8	Fon+N ₃₅₀	$345,9 \pm 0,95$	$2118,5 \pm 0,37$	$4628,9 \pm 0,14$	$4497,5 \pm 0,8$
Kuchsiz sho'rlangan					
1	Nazorat	$248,2 \pm 2,89$	$1429,0 \pm 1,33$	$3192,9 \pm 1,1$	$2193,4 \pm 2,54$
2	$\text{P}_{175}\text{K}_{125}$ -fon	$286,6 \pm 2,02$	$1904,2 \pm 1,8$	$3869,2 \pm 6,1$	$3666,6 \pm 1,25$
3	Fon+N ₁₀₀	$310,3 \pm 1,56$	$1910,7 \pm 1,16$	$4002,7 \pm 2,13$	$3709,5 \pm 3,14$
4	Fon+N ₁₅₀	$315,7 \pm 1,89$	$1965,8 \pm 1,12$	$4106,8 \pm 3,12$	$3899,9 \pm 6,14$
5	Fon+N ₂₀₀	$318,6 \pm 1,05$	$1996,4 \pm 1,26$	$4263,5 \pm 1,77$	$4085,2 \pm 2,14$
6	Fon+N ₂₅₀	$324,8 \pm 1,004$	$2005,3 \pm 1,20$	$4435,4 \pm 1,45$	$4296,3 \pm 2,17$
7	Fon+N ₃₀₀	$326,6 \pm 1,002$	$2012,5 \pm 1,05$	$4499,2 \pm 2,11$	$4368,9 \pm 1,52$
8	Fon+N ₃₅₀	$289,4 \pm 2,001$	$2026,1 \pm 1,02$	$4501,3 \pm 2,55$	$4400,0 \pm 3,2$

Sho'rlanish darajalari ortib borishi bilan g'o'za o'simligini barg yuzasi kamayib bordi. Kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda olib borilgan dala tajribasi shuni ko'rsatadiki o'g'it qo'llanilmagan nazorat variantiga g'o'zaning shonalash fazasida tajribaning barcha variantlarida $248,2 \text{ sm}^2$ dan $326,6 \text{ sm}^2$ ni tashkil qildi. Gullash fazasi va ko'saklash davrida kelib ushbu ko'rsatkichlar $1429,0 \text{ sm}^2$ dan $4501,3 \text{ sm}^2$ gacha ekanligi aniqlandi. G'o'za o'simligining vegetativ davri oxiriga kelib tajriba variantlarida ko'rsatkichlar meva elementlari hosil bo'lish fazasiga qaraganda ancha kam bo'ldi. Masalan, nazorat variantida $2193,4 \text{ sm}^2$ ni tashkil qilgan bo'lsa, fon variantida bu ko'rsatkich yuqori bo'lib $3666,6 \text{ sm}^2$ ni tashkil qildi. Tajriba maqsadi bo'lgan azotli o'g'itlarni o'rganish bo'yicha olib borilgan 3; 4; 5; 6; 7; 8 chi variant ketma-ketligi $3709,5$; $3899,9$; $4085,2$; $4296,3$; $4368,9$; $4400,0 \text{ sm}^2$ ni tashkil qildi.

Xulosalar. Tuproq sho'rlanishining ortishi g'o'za bargi yuzasining qisqarishiga olib keladi, ammo azotli o'g'itlar barg yuzasini kengaytirish va fotosintez jadalligini oshishiga yordam berdi. Turlicha sho'rlangan tuproqlarda ham o'g'itlar ayniqsa azotli o'g'itlar qo'llanilishi barg yuzasini optimallashtiradi va hosilni oshirishga olib keladi. Olingan ilmiy ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, o'g'itlar va tuproq sharoitlarini optimallashtirish orqali g'o'za ekinlarining hosildorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Azotli o'g'itlar g'o'za o'simligining o'sish va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va hosilni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, iqtisodiy nuqtai nazardan kelib chiqqan holda tajribaning 6-fon+N₂₅₀ li variantni qo'llash tavsiya etiladi. Ushbu tavsiya sho'rlanmagan hamda kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda ham samarali natijalar ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Babayeva D.T., Nurmatova M.I., Axunov A.A., Xashimova N.R. Sho'rlanish sharoitida g'o'zaning o'sish va rivojlanishi uchun DAG-1 preparatining muqobil konsentratsiyasi // O'zbekiston agrar fani xabarnomasi. - Toshkent, 2020. - №2 (80), - B.5-9.
2. Kenjayev Yu.Ch., Oripov R. Sideratsiyani g'o'zaning barg sathi, quruq modda to'plashi va fotosintetik sof mahsuldorligiga ta'siri // "Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda dolzarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy - amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.- Toshkent, 2020.- 1-qism, - B.323-326.
3. Moradi F., Ismail A.M., Responses of photosynthesis, chlorophyll fluorescence and ROS-scavenging systems to salt stress during seedling and reproductive stages in rice // Ann. Bot. 2007.- 99, N 6.- P. 1161-1173.
4. Norboyeva U.T., Holliyev A.E., Askarova D. G'o'za navlarining ayrim fiziologik xususiyatlariga sho'rlanish va namlikning ta'siri // «Охрана и рациональное использование природных ресурсов южного приаралья» Материалы международной научно-практической конференции. - Nukus, 2020. – B.210-213.
5. Uljaboyev A.A. Turlicha sho'rlangan tuproqlarda g'o'za barg sathining o'zgarib borishi // "Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda dolzarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy - amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.- Toshkent, 2020.- 2-qism, - B.677-679.
6. Xolliyev A.E., Xolov Y.D., Norboyeva U.T. G'o'zaning ayrim fiziologik indikatorlariga tuproq tiplari va sho'rlanish darajalarining ta'siri // Agrar sohani barqaror rivojlantirishda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.- Toshkent, 2020.- B. 1015-1017.

UO'K: 631.445.53

G'O'ZA EKINI YETISHTIRILAYOTGAN TURLICHA SHO'RLANGAN SUG'ORILADIGAN O'TLOQI ALLYUVIAL TUPROQLARINING AGROKIMYOVIY XOSSALAR

O.R. Umarov, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Z.X. Bafayeva, katta o'qituvchi, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

N.X. Ostanova, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada g'o'za ekilgan turli sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlarning agrokimyoviy xossalari o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda, g'o'zaning o'sishi va rivojlanishi uchun muhim bo'lgan sho'rlangan tuproqlarning kimyoviy va fizikaviy xossalari, shu jumladan, tuproqning pH darajasi, sho'rlanish darajasi, mineral moddalarning tarkibi, ozuqa moddalarining miqdori to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, tadqiqotda sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlarning sho'rlanishi ortgan sari tuproqning foydali ozuqa moddalari miqdori kamayib, bu o'simliklarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Kalit so'zlar. G'o'za o'simligi, sho'rlangan tuproq, agrokimyoviy ko'rsatkichlar, azot, fosfor, kaliy, gumus

Аннотация. В данной статье исследуются агрохимические свойства аллювиальных солонцеватых орошаемых пастбищных почв, на которых выращивается хлопчатник. В исследовании приведены данные о химических и физических характеристиках солонцеватых почв, важных для роста и развития хлопчатника, включая уровень pH почвы, степень солончаковости, состав минералов и содержание питательных веществ. В частности, исследование показало, что с увеличением солончаковости орошаемых аллювиальных пастбищных почв количество полезных питательных веществ в почве уменьшается, что оказывает отрицательное влияние на развитие растений.

Ключевые слова. Хлопковое растение, засоленная почва, агрохимические показатели, азот, фосфор, калий, гумус.